

SAMARQAND VILOYATIDA YILQICHLIKNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

**D.Xolmirzaev -professor, S.Boshmonov -assistent,
O.Boymatov -assistent, N.Ziyodullaev -talaba**

Yilqichilik chovachilikning eng qadimiy va asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, asrlar mobaynida kishilik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Aholi uchun oziq-ovqat va daromad olishning muhim manbai hisoblangan.

Yilqichilik aholini sifatli oziq-ovqat, jumladan sut va go‘sht mahsulotlari bilan barqaror ta’minalashda, ishchi kuchiga bo‘lgan talabini, milliy va klassik ot sporti o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishini qondirishda muhim o‘rin tutadi.

Keyingi yillarda yer yuzida aholi sonining keskin ko‘payishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, otlar bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish yilqichilik sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga.

E’tibor beradigan bo‘lsak keyingi yillarda mamlakatimizda sohani yilqichilikni rivojlantirish va ot sportinini ommalashtirish borasida bir qancha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil 18-fevraldagi PQ-4194-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 11-martdagi PQ-5024-sonli “Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2021 yil 5-avgustdagi PQ-5211-sonli “O‘zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida” gi qarorlari sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yilqichilik sohani rivojlantirish, aholining yilqichilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash, bevosita mahaliyy qorabayir zotli otlar bosh sonini ko‘paytirish, yilqi uyurlari mahsuldorligini oshirish, sifati va tarkibini yaxshilashga bog‘liq.

Qorabayir ot zoti mamlakatimizda rejali ravishda urchitiladigan mahalliy zot hisoblanib, o‘zining bir qator biologik xususiyatlari, xususan mamlakatimizning keskin kontinental iqlim sharoitiga yaxshi moslashuvchanligi, ozuqa tanlamasligi, chidamliligi, chopqirligi, kuchliligi, milliy va klassik ot sporti o‘yinlariga yaxshi moslashganligi bilan boshqa zotlardan ajralib turadi.

Ma’lumki qorabayir ot zoti salt minilib yengil yuk tortuvchi, salt miniluvchi va qalin tiplarga miniladi. Turli tipga mansub qorabayir zotli otlar tana tuzilishi, ish qobilyati va mahsuldorligi jihatidan bir biridan tubdan farq qiladi.

Salt minilib yengil yuk tortuvchi tipga mansub otlar qorabayir zotli otlarning 70 % ini tashkil etib, chopqir va kuchli ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sabali bu tipga mansub otlardan salt minishda va yengil yuklarni tashishda foydalaniladi.

Salt miniluvchi tipga mansub otlardan tanasining nozikligi, chayirligi, tezligining yuqoriligi sabali asosan salt minishda, turli poygalarda, polo o‘yinida keng foydalaniladi.

Qalin tipga mansub otlar gavdasining nisbatan yirikligi, kuchliligi, tashqi tana tuzilishi og‘ir yuk tortuvchi otlarga xos bo‘lganligi sababli og‘ir ishlarda ishlataladi.

O‘tkazilayotgan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga ko‘ra, respublikamizdagи turli mulkchilik shaklidagi yilqichilik xo‘jaliklarida urchitilayotgan qorabayir zotli otlar orasida salt minilib yengil yuktortuvchi tipdan tashqari salt miniluvchi va qalin tipdagi otlarni uchratish mumkin.

Mamlakatimizda urchitilayotgan jami otlarning qariyib % ini qorabayir zotli otlar tashkil qiladi.

“Turli tipdagi qorabayir zotli otlarning mahsuldorlik va ayrim biologik xususiyatlari” (S.Boshmonov) mavzusi bo‘yicha o‘tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko‘ra tadqiqotlarning tajriba qismi o‘tkazilayotgan xo‘jaliklarda urchitilayotgan otlarning asosiy qismini qorabayir zotli otlar tashkil qiladi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘sishnlari tasarrufidagi Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumanidagi 9784-sonli harbiy qism yilqichilik majmuasidagi otlarning 100 % ini, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya xizmati tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanidagi “Qorabayir” otchilik majmuasida otlar bosh soninin 90 % ini, Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanidagi “Hisor” yilqichilik xo‘jaligida urchitilayotgan 99% ini aynan qorabayir zotli otlar tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumolariga ko‘ra 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikamizda boqilayotgan otlarning umumiyy bosh soni 269002 boshni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2024 yilda 2011 yilga nisbatan 69,7% ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval ma’lumotlariga e’tibor beradigan bo‘lsak Hududlar kesimi bo‘yicha oladigan bo‘lsak otlar bosh soni Toshkent viloyatida-56,3 ming, Qashqadaryo viloyatida-35,8 ming, Jizzax viloyatida-29 ming, Samarqand viloyatida-28,7 ming, Qoraqalpog‘iston Respublikasida - 27,6 ming, Navoiy viloyatida -21,5 ming, Sirdaryo viloyatida -16,2 ming, Surxondaryo viloyatida -16,2 ming, Farg‘ona viloyatida -10,3 ming, Buxoro viloyatida -7,2 ming, Andijon viloyatida - 7,2 ming, Namangan viloyatida -7 ming, Xorazm viloyatida - 5,8 ming boshni tashkil etgan.

Mamlakatimizda urchitilayotgan otlarning qariyib 10,7 % Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi 2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra 2014 yilda Samarqand viloyatida boqilayotgan otlarning umumiyy bosh soni 22 674 boshni tashkil qilgan . Bugungi kunda Samarqand viloyatida urchitilayotgan otlarning asosiy qismi turli mulkchilik shaklidagi xo‘jaliklar va aholi xonardonlarida boqilmoqda. Jami otlarning asosiy qismi, ya’ni 92% i aholining shaxsiy xo‘jaliklarida, 6,5% i fermer xo‘jaliklarida, 1,5% i qo‘sishcha ravishda

chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hisasiga to‘g‘ri kelgan. Ushbu qo‘rsatkich 2023 yilda 27840 boshni tashkil etib, mos ravishda otlar bosh sonining ulushi mos ravishda 92;6,5;1,5 % ni tashkil qilgan.

1-jadval.

O‘zbekistondagi otlar bosh soni haqida ma’lumot.

Hududlar	20 11	201 2	20 13	2014	201 5	201 6	201 7	201 8	201 9	2020	2021	202 2	2023
O‘zbekiston Respublikasi	18 74 45	195 192	20 22 12	2088 26	213 407	216 884	221 410	230 593	242 470	2470 71	2536 25	260 393	2690 02
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	18 52 9	189 59	19 55 9	2012 2	202 74	206 03	204 73	220 52	238 09	2447 6	2591 8	267 14	2761 0
Andijon viloyati	61 88	645 9	64 97	6484	648 6	642 2	644 2	643 8	656 6	6694	6782	709 9	7218
Buxoro viloyati	41 51	434 7	43 96	4421	450 2	452 3	454 6	486 7	528 0	5653	6045	679 6	7234
Jizzax viloyati	19 16 2	199 35	20 74 9	2148 0	217 40	220 41	223 31	244 12	266 02	2730 5	2789 8	279 76	2899 6
Qashqada ryo viloyati	23 11 6	240 77	25 18 7	2659 4	272 75	279 69	292 88	300 51	320 19	3256 9	3327 4	339 83	3547 8
Navoiy viloyati	14 68 2	149 94	15 03 7	1528 3	153 90	156 00	154 52	166 12	174 79	1877 8	1984 3	211 99	2153 7
Namangan viloyati	63 24	637 3	64 29	6467	652 1	659 5	665 5	667 2	646 8	6548	6572	669 2	7003
Samarqand viloyati	19 72 6	209 72	22 11 3	2267 4	231 31	233 01	235 31	238 69	259 46	2655 3	2727 3	278 40	2873 7
Surxondaryo viloyati	14 86 1	150 25	14 92 3	1475 4	148 41	148 29	149 36	146 32	141 66	1436 3	1475 3	154 52	1618 0
Sirdaryo viloyati	92 15	102 87	10 89 2	1170 6	126 34	136 33	150 89	153 99	150 86	1443 3	1448 4	152 06	1622 2
Toshkent viloyati	40 24 4	419 89	43 78 4	4569 0	468 58	474 88	485 98	513 18	541 94	5480 5	5533 0	556 12	5629 1
Farg‘ona viloyati	62 99	682 4	74 01	7891	846 4	855 3	874 1	884 2	904 1	9063	9549	980 1	1025 5

Xorazm viloyati	49 48	495 1	52 45	5260	529 1	532 7	532 8	542 9	555 9	5604	5676	572 8	5812
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0	255	227	228	295	429	

2-jadval.

Samaarqand viloyatidagi turli mulkchilik shaklidagi xo‘jaliklarda boqilayotgan otlar bosh soni haqida ma’lumot.

Xo‘jalik turi	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Barcha toifadagi xo‘jaliklarda	22 674	23 131	23 301	23 531	23 869	25 946	26 553	27 273	27 840	28737
Fermer xo‘jaliklarida	1 464	1 491	1 495	1 541	2 260	3 079	3 257	3 804	4 428	4498
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarda	20 865	21 282	21 321	21 455	21 242	22 583	23 018	23 101	23 208	23954
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarda	345	358	485	535	367	284	278	368	204	285

Bugungi kunda Samarqand viloyatida yilqichilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat mavjud. Turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashgan xo‘jaliklardagi mavjud shart-saroit, oziqa bazasi, tabiiy yaylovlardan mavjud otlar bosh sonini bir necha ko‘paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini oshirish imkonini beradi.

Buning uchun yaylov larga ega tog‘ va tog‘ oldi hududlarida dalat sherikchiligi asosida qorabayir ot zotini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan yangi yilqichilik xo‘jaliklarini tashkil etish, ixtisoslashgan xo‘jaliklarda otlar bosh sonini ko‘paytirish, sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yilqichilikni rivojlantirish uchun ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yilqichilik sohasida faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab quvvatlash ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish imkonini beradi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyundagi PQ-3057-sonli qarori.
2. «2017-2021-yillarda yilqichilik va ot sportini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyuldaggi 517-sonli qarori.
3. «O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-fevraldaggi PQ-4194-sonli qarori.
4. *B.V.Калаников. Прошлое, настоящее и будущее коневодства России. «Устойчивое развитие табунного коневодства» Материалы научно парковической конференции. Якутск. 2008. с 20-31.*
5. *Xolmirzayev D. “Yilqichilik va tuyachilik”. Darslik. Samarqaqnd. Fan, 2021 yil.*
6. *Xolmirzayev D. “Yilqichilik fanidan amliy mashq‘ulotlar”. O‘quv qo‘llanma. Samarqaqnd. Fan, 2021 yil.*
7. SS, R. D. B. (2024). STATE OF SHEEP BREEDING AND DEVELOPMENT PROSPECTS. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 23-28.
8. SS, R. D. B. (2024). STATE OF SHEEP BREEDING AND DEVELOPMENT PROSPECTS. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 23-28.
9. www.fao.org
10. www.stat.uz